

ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI

Sotvoldiyev Sayfiddin Abduvohid o'g'li

Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 301-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21387985>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVII–XVIII asrning birinchi yarmi — Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligidagi ilmiy-madaniy muhit va ilm-fan rivoji tadqiq etilgan. Ishning maqsadi — davrdagi siyosiy inqirozlarga qaramasdan, ilm-fan tarmoqlari, madrasa ta'limi va shifoxonalar faoliyatini tarixiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritishdir. Bundan tashqari, Subhonqulixon kabi hukmdorlar homiyligida tibbiyot, matematika, astronomiya, tarixnavislik va adabiyot sohalari rivojlangani hamda Buxoroda yirik kutubxonalar va Dorush-shifo (shifoxona) tashkil etilgani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, ilm-fan, madrasa, tibbiyot, Subhonqulixon, Dorush-shifo, ilmiy meros.

Ashtarxoniylar sulolasi (1601-1753) hukmronlik qilgan XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmi tariximizda ko'pincha siyosiy tarqoqlik, ichki nizolar va iqtisodiy inqirozlar davri sifatida tasvirlanadi. Biroq, tarixchi sifatida ushbu davrning madaniy va ma'naviy hayotini chuqurroq tadqiq etgan holda, siyosiy inqirozlar ilm-fan va ma'rifiy tafakkurning butunlay so'nishiga olib kelmaganiga, aksincha, o'ziga xos moslashish va an'analarni saqlab qolish jarayoni kechganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mening nazarimda, ushbu davr ilm-fani Temuriylar renessansining buyuk merosini asrab-avaylash, tizimlashtirish va o'zgaruvchan davr talablariga muvofiq qayta anglash vazifasini bajargan o'ziga xos o'tish bosqichidir.

Tarixnavislik va geografiya fanlari bu davr ma'naviy hayotining eng yorqin va sermahsul yo'nalishiga aylandi. Ashtarxoniylar davri tarixchilari shunchaki voqealar ketma-ketligini qayd etuvchi solnomachilar emas, balki o'z zamonining ijtimoiy-siyosiy muammolarini chuqur tahlil qilgan publitsist va tahlilchilar ham edi. Mahmud ibn Valining yetti jildidan iborat monumental qomusiy asari — “Bahr al-asror” (“Sirlar dengizi”) buning yaqqol isbotidir. Ushbu asar nafaqat o'zbek davlatchiligi tarixini tizimlashtirdi, balki geografiya va etnografiya sohaslarida o'sha davr dunyoqarashining cho'qqisi bo'ldi. Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asarida xonlikning iqtisodiy inqirozi va qo'shni davlatlar bilan savdo-diplomatik aloqalari tahlil etilgan bo'lsa, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asari Ubaydullaxon II ning islohotchilik harakatlarini ochib berdi. Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” risolasida esa adolatli davlat boshqaruvi prinsiplari falsafiy-huquqiy nuqtayi nazardan asoslab berildi. Ushbu tarixiy asarlarni o'rganimizda, ularda markazlashgan kuchli davlat g'oyasi hamda bosh-boshdoqlikka qarshi ichki isyon yetakchi o'rinda turganini bilib olishimiz mumkin. Bu esa davr olimlarining jamiyat hayotiga befarq bo'lmagan faol fuqarolik pozitsiyasini ko'rsatadi.

Meni eng hayratlantirgan sohalardan biri — bu davrda tibbiyot fanining yuqori darajada rivojlantirilganidir. Hukmdor Subhonqulixonning shaxsan o'zi tibbiyot ilmi bilan chuqur shug'ullanib, o'zbek tilida “Tibbi Subhoni” va fors tilida “Ihyo ut-tibbi Subhoni” asarlarini yozgani davlat tepasidagi shaxslarning ilm-fanga bo'lgan munosabatidan dalolat beradi. Uning tashabbusi bilan 1697-yilda Buxoroda bunyod etilgan “Dorushshifo” shifoxonasi va tibbiyot akademiyasi o'z davrining mukammal ilmiy-amaliy markazi edi. Bu yerda dorixona va boy tibbiy kutubxonaning tashkil etilishi, tabiblar va talabalarga vaqf mulklari hisobidan maosh

hamda stipendiyalar to'lanishi davlat inqiroz yoqasida turgan bir paytda ham ilm-fan va xalq salomatligi strategik ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Falsafa, astronomiya va ijtimoiy-axloqiy fikr sohasida ham o'ziga xos izlanishlar davom etdi. Garchi diniy dogmatizm va aqidaparastlikning kuchayishi erkin ilmiy fikrlash doirasini biroz cheklab qo'ygan bo'lsa-da, mutafakkirlar dunyoviy va diniy ilmlarni uyg'unlashtirishga intildilar. Mashhur mudarris Muhammad Sharif Buxoriy falsafa, fiqh va astronomiyaga oid yigirmadan ortiq risolalarida, xususan, "Xoqonga foydali maslahatlar" asarida zamon va makon tushunchalarini falsafiy tahlil qildi. Ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy esa koinot jismlarining inson tabiatiga ta'sirini tibbiy-astronomik jihatdan tadqiq etdi. Sharq falsafasining yirik vakili Mirzo Abdulqodir Bedil o'zining "To'rt unsur" asari orqali borliqning kelib chiqishi va inson borlig'ining mohiyatini falsafiy-panteistik nuqtayi nazardan talqin etib, davr tafakkuriga yangi nafas olib kirdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ashtarxoniylar davri ilm-fanini bir tomonlama inqiroz va turg'unlik davri deb baholash tarixiy adolatsizlik bo'lar edi. Ushbu davr mutafakkirlari, xattotlari va tabiblari juda og'ir tarixiy sharoitda ham o'zbek davlatchiligining ma'naviy salohiyatini va boy ilmiy an'alarini asrab qoldilar. Bu davrda yaratilgan asarlar keyingi davrlarda, xususan, Qo'qon va Buxoro madaniy muhitida yangi uyg'onish jarayonlari uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ziyoyev A. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas'ul muharrir: B. Ahmedov. – Toshkent: "Sharq", 2000. – 270-273-b.
2. Eshov B. Odilov A. O'zbekiston tarixi II qism (XIV asrning o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha). – Toshkent: "DONISHMAND ZIYOSI", 2020. – 409 b.
3. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari [Matn]: monografiya. – Toshkent: "BAYOZ", 2021. – 137 b.
4. Nasrilloyev K. Ashtarxoniylar hukmdorlarning ilm ahllari bilan munosabatlari // Builders of the future. №2. 2022. – B. 13-17.